



NOTES OF CHINESE TOURISTS ABOUT CENTRAL ASIAN CITIES

Makhpurat Khamzayevna Hubbaliyeva

supporting doctoral student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Great Silk Road, Zhang Qian, "Shi Ji", U-di, Central Asia, Battle of Talas, Tang Dynasty, Shosh Country, Ferghana

Received: 21.07.24

Accepted: 23.07.24

Published: 25.07.24

Abstract: This article provides information about tourists who visited Central Asia in ancient and medieval times and the cities mentioned in their travelogues. The information about the arrival of Zhang Qian to the Fergana Valley and the history of our country in ancient times was analyzed.

It also talks about Du Huan, who was in Central Asia in the Middle Ages, and his travelogue. In Du Huan's travelogue, the places he visited are listed roughly from east to west. This article also details Du Huan's impressions of the famous Battle of the Talas River between the Arabs and the Tang Dynasty. Du Huan also writes information about paper production in the city of Samarkand. Du Huan's travelogue contains valuable information about Central Asia and reflects the life of cities, the way of life of the population, political, social and economic situation. The article provides explanations of the names of the countries mentioned in Du Huan's travelogue.

XITOIY SAYYOHLARINING MARKAZIY OSIYO SHAHARLARI HAQIDAGI QAYDLARI

Maxpurat Xamzayevna Xubbaliyeva

tayanch doktorant

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. Buyuk Ipak yo'li, Chjan Chyan, "Shi ji", U-di, Markaziy Osiyo, Talas

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoga tashrif

jangi, Tang sulolasi, Shosh mamlakati, Farg'ona

buyurgan sayyohlar va ularning sayohatnomalarida qayd etilgan shaharlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Qadimgi davrda Chjan Chyan Farg'ona vodiysiga kelishi va yurtimiz tarixiga oid ma'lumotlari tahlil qilindi.

Shuningdek, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda bo'lgan Du Huan va uning sayohatnomasi haqida so'z boradi. Du Huan sayohatnomasida tashrif buyurgan joylari taxminan sharqdan g'arbga yo'nalishda yozilgan. Shuningdek, ushbu maqolada arablar va Tang sulolasi o'rtasidagi Talas daryosi bo'yida sodir bo'lgan mashhur jangda ishtirok etgan Du Huanning taasurotlari batafsil bayon qilinadi. Du Huan bundan tashqari Samarqand shahridagi qog'oz ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotni yozadi. Du Huan sayohatnomasida Markaziy Osiyo to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, shaharlar hayoti, aholi yashash tarzi, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy holati aks ettiriladi. Maqolada Du Huan sayohatnomasida keltirilgan davlatlar nomining izohlari keltiriladi.

ЗАПИСКИ КИТАЙСКИХ ТУРИСТОВ О ГОРОДАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Махпурат Хамзаевна Хуббалиева

поддержка докторанта

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Великий шелковый путь, Чжан Цянь, «Ши Цзи», У-ди, Средняя Азия, Таласская битва, Династия Тан, Страна Шош, Фергана

Аннотация: В данной статье представлена информация о туристах, посетивших Центральную Азию в древности и средневековье, и городах, упомянутых в их путевых заметках. Проанализированы сведения о прибытии Чжан Цяня в Ферганскую долину и история нашей страны в древности.

Также рассказывается о Ду Хуане, который побывал в Средней Азии в средние века, и его рассказах о путешествиях. В путеводителе Ду Хуаня места, которые он посетил, перечислены примерно с востока на запад. В этой статье также подробно описаны впечатления Ду Хуаня от знаменитой битвы на реке Талас между арабами и династией Тан. Ду Хуан также пишет информацию о производстве бумаги в городе Самарканде. Путеводитель Ду

Хуаня содержит ценные сведения о Центральной Азии и отражает жизнь городов, быт населения, политическую, социальную и экономическую ситуацию. В статье даются пояснения к названиям стран, упомянутых в путеводителе Ду Хуаня.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm markazlari sifatida Toshkent, Fargʻona, Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi viloyatlar eʼtirof etiladi. Oxirgi 30 yil mobaynida ushbu hududlarda turizm sohasi jadal rivojlandi. Qadimgi davrlardayoq Buyuk Ipak yoʻli orqali mamlakatimizga Xitoydan koʻplab sayyohlar tashrif buyurgan. Xitoy sayyohlari sayohat yozuvlarida Markaziy Osiyo xususan mamlakatimizdagi ziyoratgohlar, koʻhna shaharlar haqida maʼlumotlar uchraydi. Bundan koʻrinadiki, Markaziy Osiyo karvon yoʻllarini bogʻlovchi muhim strategik hudud va koʻplab xitoy sayyohlarining qaydlaridan oʻrin olgan turistik markazlardan biri hisoblangan. Quyida biz qadimgi va oʻrta asrlarda mamlakatimizga kelgan sayyohlar va ularning sayohatnomalaridan joy olgan hududlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni tahlil qildik.

ASOSIY QISM

Syan Xanshu – Avvalgi Xan sulolasi tarixida Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi boʻlimni yozishda nafaqat “Tarixiy yilnomalar” matni, balki Chjan Chyaning sayohati materiallari ham ishlatilgan. Chjan Chyan miloddan avvalgi 139-yilda, yaʼni yueji qabilalari Yunoniston-Baqtriya bosib olganidan bir yil oʻtib Xitoyni tark etgan. Oʻn yil xunlar asirligida boʻlib, Oʻrta Osiyoda uzoq sarson-sargardonlikdan soʻng, miloddan avvalgi 129-yilda Baqtriya yetib keldi. Shu sababli, Ban Guning soʻzlariga koʻra, Chjan Chyan koʻz oʻngida sodir boʻlgan voqealarni tasvirlashda ishonchli muallifdir. Gʻarbiy hududdagi qabilalarning oʻzaro munosabatlari, Usun va Yuejilarning koʻchirilishi, Baqtriyaning zabt etilishi va boshqalar. Shuni unutmaslik kerakki, Xan saroyining Xitoy shimoliy va gʻarbiy qismidagi tashqi siyosati Chjan Chyaning qariyb yigirma yil davomidagi maʼlumotlariga asoslangan edi. Chjan Chyan Oʻrta Osiyoga tashrifidan soʻng, bu yerdagi xalqlarning madaniyati, iqtisodiyoti va qadriyatlar haqida juda koʻp qimmatli maʼlumotlar bilan qaytadi. Ushbu maʼlumotlar “Shi ji” Tarixiy xotiralar asariga kiritiladi. Uning sayohati natijasida nafaqat Markaziy Osiyo toʻgʻrisida qiziqarli maʼlumotlar toʻplanishiga balki, Markaziy Osiyo va Xitoy oʻrtasida aloqalar rivojlana boshlanishiga sabab boʻldi. Chjan Chyan Markaziy Osiyodagi juda koʻp hududlar haqida hukmdor U-di ga axborot beradi.

Miloddan avvalgi birinchi asrlar – milodiy birinchi asrlarda Fargʻona yuqori darajada rivojlangan iqtisodiyoti, qishloq xoʻjaligi va hunarmandchiligi hamda koʻp sonli shaharlari boʻlgan boy mamlakati edi, bu haqda Chjan Chyan miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmining

boshlarida bu hududga tashrif buyurganida aytib o'tgan edi. Xitoyliklar beda va uzum kabi ekinlarni, may va musallaschilik sir-asrorlarini, shuningdek, mashhur Farg'ona otlari zotini ilk bor o'z yurtiga eksport qilgani bejiz emas.

Chjan Chyaning ma'lumotiga asosan bitilgan manbalarda quyidagilar qayd etiladi: "U-di Farg'ona, Kan, Arshak kabi davlatlarning katta mamlakat ekanligi, ularda g'aroyib narsalarning ko'pligi, xalqi o'troqlashgan bo'lib, urf-odatlar xitoyliklar bilan o'xshashligi, lekin harbiy jihatdan o'jizligi, Xan sulolasining mollarini qadrlashi, ularning shimolida Dayuejilar bilan Kankiya davlatlari borligi va ularning harbiy qudrati nisbatan kuchliroq ekanligi, mol-dunyo va boylik berilsa ular foydani ko'zlab, ziyoratga kelishlari mumkinligini eshitadi."

Xitoy buyumlari O'rta Osiyoga, ehtimol, miloddan avvalgi II-I asrlarning ikkinchi yarmida Chjan Chyan tomonidan G'arbiy mintaqa kashf etilgandan va Buyuk Ipak yo'lining faoliyati boshlanganidan so'ng, O'rta Osiyoda yashovchi xalqlar bilan turli xil munosabatlar o'rnatilgandan keyin kela boshlagan.

Garchi bu yerga biroz oldinroq Xitoy buyumlari kirib kelishini tasdiqlovchi faktlar mavjud bo'lgan. Shunday qilib, Chjan Chyan Baqtriyada bo'lganida, u yerda bambuk hassalarni va Shu shahridagi rasmlarni ko'rgan. Baqtriya aholisining fikricha, bu buyumlarni Shenduga savdo qilish uchun ketgan savdogarlari sotib olgan. Boshqa bir xitoylik manba Shi ji ma'lumotlariga ko'ra, bu tovarlar Shu viloyatidagi savdogarlardan sotib olingan.

Bugungi kunga qadar qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid yuzga yaqin xitoy tangalari qayd etilgan. Xitoy tangalarining Markaziy Osiyoning g'arbiy tarixiy-madaniy hududlariga kirib kelishining ikki yirik davrini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchisi ushu tangalari, miloddan avvalgi 118 – milodiy 581-yillarda chiqarilgan Hosyuyan tangalari, imperator Van Mang davri (milodiy 9-23-yillar). Ikkinchi davr milodiy VII-VIII asrlar — O'rta Osiyoga Tan sulolasi bronza tangalarining kirib kelishi O'rta Osiyoning g'arbidagi bir qator tarixiy-madaniy hududlarida, xususan So'g'dda, pul tizimining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ikki mintaqa o'rtasida Buyuk Ipak yo'li orqali muntazzam ravishda karvonlar qatnab turdi. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan davlatlarning xususan Markaziy Osiyoning ushbu savdo-sotiq munosabatlarida ta'siri juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chjan Chyaning Markaziy Osiyo haqidagi qimmatli ma'lumotlari shubhasiz yurtimiz tarixini o'rganishimizda o'rni beqiyosdir. Uning ma'lumotlari asosida xitoy manbalaridan "Tarixiy xotiralar" va "Xan sulolasining tarixi" kabi muhim asarlarda Markaziy Osiyo tarixi, madaniyati, qadriyatlari, aholisi va turmush tarzi to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar yoritildi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda bo'lgan sayyoh Du Huan (杜环, Dù Huán) 762-763 yillarda 12 yil davomida Turkistonning ko'plab hududlarida ko'rgan-kechirganlarini "Du Huan sayohatnomasi" bayon qiladi. Shuningdek, Du Huan sayohatnomasida Xitoyning Tang sulolasi

(618-907 yillar) va Turk Xoqonligi o'rtasidagi Buyuk Ipak yo'li ustidan nazorat qilish huquqini qo'lga kiritish uchun bo'lgan kurash, Talas daryosi bo'yida sodir bo'lgan jang haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu jangda asir olingan ko'plab hunarmand va rassomlar Samarqandga olib ketilgan degan ma'lumotlar uchraydi. Du Huan ularni Samarqandda qog'oz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganliklarini va do'konlar ochganligini qayd etadi.

Mazkur manbalar bizga tarixni o'rganishimizda, geografik tadqiqotlar qilishda muhim material bo'lib xizmat qiladi.

Du Huan 751-yilda Arab xalifaligi va Xitoy o'rtasida bo'lib o'tgan Talas jangida asir olingach, O'rta va G'arbiy Osiyo hamda O'rta dengiz bo'yidagi turli hududlarda 12 yil sarson bo'ladi. 762-763-yillar savdogarlar kemasiga o'tirib, Guangjouga qaytib boradi. U o'zining barcha ko'rib-eshitganlarini "Sayohatnoma" da yozib jamladi. Afsuski, mazkur kitob tarqalib ketgan. Quvonarlisi shundaki, "Keng qamrovli ensiklopediya" (《通典》, Tōng diǎn) sining bir bo'limida saqlanib qolgan.

Xitoy va chet elda ko'plab tarixchilar "Sayohatnoma" ni o'rganib tekshirishgan. Xitoyda Ding Chyen "Sayohatnomaning geografik tadqiqoti" (《经行记地理考证》, Jīng xíng jì dìlǐ kǎozhèng), Vang Guovey (王国维, Wáng Guówéi) "Qadimiy sayohatnoma tekshirilgan jamlanmasi" (《古行记校录》, Gǔ xíng jì jiào lù) da "Sayohatnoma" tekshirilib, izoh berilgan. Ozodlikdan avval Djang Yichun (张一纯, Zhāng Yīchún) "Du Huan sayohatnomasiga izohlar" (《杜环经行记笺记》, Dù Huán Jīngxíngjì jiān jì) asarini yozib, u yerda ko'p izohlar qoldirdi va ma'lumotlarning aniqliligini tekshirib, ko'plab tadqiqotchilarning ishlarini jamladi. Mazkur kitobdagi "Sayohatnoma" tarixchi Djang Yichunning tekshiruvi va izohlariga asoslangan. Shuningdek, sayohatnomada biz quyidagi davlatlarni o'rganishimiz mumkin:

Suyob mamlakati (1). Ansidan shimoli-g'arb tomonda 500 km dan ortiq masofada Bedel dovoni bor. Dovonning janubi Tang davlatining shimoliy chegarasi, dovonning shimoli esa Turk xoqonligining janubiy chegarasi, janubi-g'arbda 1000 km dan ortiq masofada Pomir tog'i joylashgan. Dovonning janubidan oquvchi suv Xitoydan o'tib Sharqiy Xitoy dengiziga quyiladi. Uning shimolidan oquvchi suvlar esa kichik etnik qabilalar yashovchi hududdan oqib, Shimoliy dengizga quyiladi. Shimolga bir necha kun yurilsa, Bogda-Ula cho'qqisidan o'tiladi. Uning dengizi tog'da joylashib, bahor va yozda ko'pincha yomg'ir va qor yog'adi, shu sabab xitoy tilida "Qor dengizi" (雪海, Xuě hǎi) deb nomlanadi. Uning o'rtasida ingichka yo'l bo'lib, uning yonida suvli g'or bo'lib, kengligidan bu yerdan o'tgan yoki bu yerga yiqilgan odam o'zining qayerdaligini bilmay qoladi.

Bedel dovoni shimolida 500 km dan ortiq masofada Chu daryosi bor. Daryoning sharqiy boshida Issiq ko'l bor, bu yer sovuq bo'lsa ham muzlamaydi, shu sabab xitoychada "Issiq dengiz" (热海, Rè hǎi) deb nomlanadi. Shu bilan birga, Suyob shahri mavjud bo'lib, 749-yil Beyting Protektorati (北庭, Běi tíng) harbiy hokimi Vang Djengjyan (王正见, Wáng Zhèngjiàn) yurish qiladi. Shahar devorlari vayron qilindi, shahar aholisi tarqalib ketdi, ilgari Malika Dzyaohe yashagan joyda qurilgan Dayun ibodatxonasi hali ham mavjud. Daryoning g'arbi esa Shosh bilan qo'shni bo'lib, masofasi taxminan 500 km dan ortiqni tashkil etadi. Daryo markazida esa turli qabilalar va boshqa familiyali turkiy xalqlar istiqomat qiladi. Har birining bir necha o'n minglik qo'shini bor, shaharlari o'zaro bog'langan bo'lib, o'zaro urushlar va to'qnashuvlar ko'p bo'lib turadi. Har bir dehqon sovut kiyib, o'zaro talon-taroj uyushtirishadi va shu bilan qullikka olishadi. Daryoning g'arbiy boshida Talas (yoki Taraz) nomli shahar bo'lib, Shosh mamlakati katta shahri hamda 751-yil Gao Syandji mag'lubiyatga uchragan joydir. Bu yerdan sharqda O'rta dengizi bor bo'lib, mart oyidan sentabrgacha havo ochiq bo'ladi, aholi qor suvi yordamida ekin ekishadi, arpa, bug'doy, guruch, no'xat, dala no'xati (yashil) eksa bo'ladi, uzum sharbati (vino), tariq sharbati va sirkali sut ichishadi.

Shosh mamlakati, boshqa nomlari 赭支 (Zhě zhī) va 大宛 (Dàyuān) bo'lgan. Tang hukmdori Syuandzongning hukmronligining 742-756-yillari oralig'ida to'rt garnizon harbiy hokimi Gao Syandji mamlakat qiroli va uning rafiqasini asir olib poytaxtga qaytgan. Mamlakat hududida ikki asosiy suv – Djendju daryosi (真珠河, Zhēnzhū hé)" va Dji daryosi (质河, Zhì hé) (ikki daryo hozirgi Norin daryosining qadimgi nomi) bo'lib, shimol va g'arbga oqadi. Du Huan yeri tekis va keng bo'lib, ko'p mevalar o'sadi, kuchuklar va yaxshi sifatli otlari bor deb ta'riflaydi.

Farg'ona (So'g'd bekligi) Talasdan 500 km janubda, sharqda tog'lar bor, Shule mamlakati bilan 1000 km dan ortiq masofa bor, g'arbda 500 km dan uzoqda Shosh mamlakati bor. Ko'plab shaharlari bor, bir necha o'n minglab askarlari bor. Tang sulolasi Syuan Dzong hukmronligi davrida milodiy 752-yili Malika He I ushbu mamlakatga turmush qurish uchun yuborilgan. Vodiya yovvoyi kalamushlar juda ko'p. Bu yerda uzum, amalaka, xurmo, shaftoli va nok yetishtirish qulay. Bu yerdan O'rta dengizigacha barcha aholi loydan qilingan uylarda yashagan, qo'y terisidan qilingan matolarda kiyinishgan, erkak va ayollarning barchasi etik kiyishadi, ayollari oq upa surishmaydi, faqatgina qoshga ko'k-qora suyuqlik surishadi.

XULOSA

Xitoy tarixining manbalari xilma-xil va boydir. Ular orasida qadimgi tarixga oid sayohatnomalar alohida o'rin tutadi va ularni o'rganish muhim vazifalardan biridir. Du Huan sayohatnomasida Markaziy Osiyo tarixiga oid ma'lum voqea-hodisalar, shaharlar to'g'risida

ma'lumotlar keltiriladi. Sayohatnomaning qimmatli ekanligi shundaki, unda voqealarning aniq bayon qilinishi va shu davr siyosiy, ijtimoiy, madaniy tarixini aniq ifodalaydi:

Birinchidan, Tang qo'shinlari orasida qog'oz ishlab chiqaruvchi ishchilar ko'p edi. Shuning uchun arablar Samodyen (hozirgi Samarqand, O'zbekiston) qog'oz ishlab chiqaruvchi zavod qurishadi. O'shandan boshlab Xitoyning qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi O'rta Osiyoga kirib keldi, keyinchalik Arabistondan Yevropa va butun dunyoga tarqaldi. Jahon sivilizatsiyasining tarqalishi qog'oz ishlab chiqarishning hissasi tufayli jadal ravishda sodir bo'ldi. Xitoyning qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasining g'arbga tarqalishi Talas jangining kutilmagan va g'ayrioddiy natijasi haqida ma'lumotlarni ko'ramiz;

Ikkinchidan, Du Huandan butun sayohati davomida sharq va g'arbga sayohatdagi ikki asosiy transport chizig'i, ya'ni dengiz va quruqlikda sayohat qilishni boshdan kechirdi, bu esa oson emas. U nafaqat G'arbiy Osiyodagi arablar poytaxtiga tashrif buyurgan Tang sulolasining birinchi vakili, balki Misr, Sudan, Efiopiya va boshqa Afrika mamlakatlariga tashrif buyurgan birinchi xitoylik ham edi. Uning g'ayrioddiy sarguzasht tajribasi uni Xitoy kashfiyotlari tarixida chinakam ajoyib sarguzashtchi va tadqiqotchiga aylantirdi;

Har bir xalq tarixini o'rganishda uning qadimiy tarixiga va manbalariga murojaat etish, uning bugungi rivojlanishi xususiyatlarini to'g'ri anglashga yordam beradi. Ayniqsa, Xitoy kabi qadimgi va mo'jizakor mamlakat uchun nihoyatda muhimdir. Shuningdek, xitoy manbalarida Markaziy Osiyo tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarni uchratamiz. Boshqa tillardagi manbalardan ko'ra xitoy manbalari voqea-hodisalar sodir bo'lgan yillarning aniq ko'rsatilishi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ю.А.Зуев. К этнической истории усуней. Новые материалы по Древней и Средневековой истории Казахстана. А., 1960.
2. S. I. Berzina. "Kushana coins in Axum", Information Bulletin, International Association for the Study of the Cultures of Central Asia, Issue 7, Moscow, 1984.
3. Akin, Alexander. "The Jing Xing Ji of Du Huan: Notes on the West by a Chinese Prisoner of War." Harvard Middle Eastern and Islamic Review 5 (1999): 77-102.
4. Lei W. The First Chinese Travel Record on the Arab World. – 2016.
5. Smidt W. G. C. A Chinese in the Nubian and Abyssinian kingdoms (8th century). The visit of Du Huan to Molin-guo and Laobosa //Arabian Humanities. Revue internationale d'archéologie et de sciences sociales sur la péninsule Arabique/International Journal of Archaeology and Social Sciences in the Arabian Peninsula. – 2001. – №. 9.